



## INGLIZ TILIDA IBORALAR VA FRAZEOLOGIK FE'LLARNI O'RGANISH USULLARI

---

*Nizomiddinova Rayhona Nizomiddin qizi*  
*Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz 2 Fakulteti*  
*Xorijiy til va adabiyoti Ingliz tili yo'nalishi*  
*2-kurs 2231-guruh talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Zubaydova N.N.*

**Annotatsiya:** Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Agar sizda tilda iboralarni qo'llash nega kerak? yoki qanday bo'ladi? degan savol tug'ilsa ushbu maqolada iboralarni hamda frazeologik fe'llarni har ikkala til doirasida o'rganishni, misollar orqali ko'rib chiqamiz.

**Abstract:** Language learning begins in the most important areas of human society. Language, which is a means of communication, can be acquired practically in a natural environment (in the family, by chance) or in an organized way (in a lesson). Knowledge of language phenomena is studied theoretically. In our era of rapid international relations, knowing a language, especially multilingualism (polyglossia), is of great importance. Why do you need to use expressions in your language? or how about if the question arises, in this article we will consider the study of phrases and phrasal verbs in both languages, using examples.

**Kalit so'zlar:** til, zamonaviy tillarni bilish, ibora, idiomatik ibora ma'nosi, qo'llanilishi, frazeologik iboralar, misollar

Ibora til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Iboralar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir tilda shunday so'zlar yoki so'z birikmalari borki, ularni to'g'ridan-to'g'ri tushinib bo'lmaydi. Agar siz barcha so'zlarning ma'nosini yaxshi bilsangiz ham va barcha grammatik iboralarni tushunsangiz ham, shunga qaramay idiomatik iboraning ma'nosini anglash murakkabligicha qolaveradi. Maqollar, iboralar va og'zaki



so‘zlashuv uslubidagi so‘zlarni tushunish bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Idioma deb ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nolarining yig‘indisidan kelib chiqmaydigan so‘z birikmalariga aytiladi. Idiomatik iboralar, asosan, kundalik muloqotlarda qo‘llaniladi. Bunday iboralar tezda yodda saqlanib qolib, o‘ziga funksional jihatdan teng bo‘ladi. Ular fikrlarni chiroyli ifodalashga ham xizmat qiladi. Tilni o‘rganayotganda idiomalar uning eng murakkab sohalaridan deb hisoblanadi, ayniqsa, ingliz tilida va unga alohida yondashuv talab qilinadi. Odatda o‘quvchilar idiomatik iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishadi va bu ba’zan kulgili tarjimalarga sabab bo‘ladi.

Bu lug‘at idiomatik iboralarning ajoyib jamlanmasi bo‘lib, undagi idiomalar ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda tez-tez qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi idiomaning ma’nosi bevosita tarjima, misollar va o‘zbekcha muqobillarini keltirish yo‘li bilan yoritib berilgan. Ba’zi idiomlarning muqobil variantlari qavs ichida keltirilgan. Masalan:

Chew the fat (chew the rag) (fig) gap sotmoq, g‘iybatlashib, gaplashib o‘tirmoq.

1. Last Sunday we chewed the fat over it for hours.

2. While I was returning home yesterday, my friend popped up on my way and we chewed the fat all the way home.

Ba’zi noaniq yoki aniq artikllarning yoki predloglarning muqobillari quydagi belgi bilan berilgan « / »

Break a/the habit (fig) odatni tashlamoq, eski odatdan xalos bo‘lmoq.

1. Everybody knows that it is too complicated to break a habit. You know saying «old habits die hard».

2. Especially, it is even harder to break a habit if you have had it for a long time.

So‘zlarni turlicha ma’nolari bir-biridan arab raqamlari bilan ajratilgan.

Ingliz tilida xorijliklar bilmaydigan, biroq bu til ona tilisi bo‘lganlar doimiy ravishda qo‘llaydigan ko‘plab so‘z birikmalari mavjud. “Asl ingliz” iboralaridani to‘plab, e’tiboringizga havola etamiz. Ular sizni ommadan ajratib turishi aniq.

1. Firstly, secondly, thirdly...

«Birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan...»

“Inglizcha” quloq uchun rasmiy tuyuladi (so‘zlashuvda odatda first, second, third qo‘llaniladi), biroq tilni yaxshi bilishingizni ko‘rsatadi. Ammo in the first, in the second va hk. ko‘rinishida qo‘llab bo‘lmaydi.

Firstly, I prefer airplane because it’s fast. Secondly, they give you meals, and thirdly, I like a view from the window.



Men samolyotlarni ma'qul ko'raman. Chunki birinchidan, tez, ikkinchidan, u yerda taom berishadi, uchinchidan, illyuminatorni tomosha qilishni yoqtiraman

## 2. Help yourself

«Oling-oling», «bemalol»

Asl ma'nosidan tashqari, ko'pincha gap shaklida mustaqil ravishda harakat qilishga ruxsat ma'nosida qo'llaniladi.

— May I use your phone? — Telefoningizdan foydalansam bo'ladimi?

— Help yourself! — Bemalol!

Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, ma'noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks

ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq AQSh xulosa-larning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.

Frazeologik Iboralarga misollar:

### 1. Call somebody back- "return a phone call" qayta telefon qilmoq

I called the company back but the offices were closed for the weekend-Men kompaniyaga qayta qo'ng'iroq qildim, lekin ofislar hafta oxiri yopiq edi

2. Get something across/ over-"communicate, make understandable"-muloqot qilish, tushunarli qilish

I tried to get my point across/over to the judge but she wouldn't listen -Men o'z fikrimni hakamga yetkazmoqchi bo'ldim, lekin u quloq solmadi.

Ingliz idiomalari ham yuqoridagi kabi black ship, dark horse kabilar hayvonlar guruhiga mansub frazeologik birliklar hisoblanadi. Frazeologik birliklar nutqni yanayam chiroyli qiladi va tilni boyitadi. Ularning kelib chiqishi, tarixi, nima asosida shakllanganligi to'g'risida ko'plab ingliz, rus, o'zbek olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Tilshunos ingliz olimi L.Graff frazeologik birikmalar va ularning uslubiy bog'lanishidagi farqini tavsiflab bergan. Va u breakfast so'z ham to break fast turg'un birikmasidan kelib chiqqanini aytadi.

O'zbek tilida ham bo'lgani kabi ingliz tilida boshqa tildan kirib kelgan so'zlar, iboralar va idiomalar bir talay.

Xulosa o'rnida, iboralar hamda frazeologik fe'llar tilda rang-barang va boydir. Yuqorida ko'rib chiqilgan birikmalarning tahlili sifatida ularni tilda qo'llab, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib, to'g'ri qo'llashga e'tibor qaratishimiz zarur.



**REFERENCES:**

1. Jalolov J. Chet til O'qitish Metodikasi//Toshkent, "O'qituvchi" Toshkent-Nashriyot Matbaa Ijodiy Uyi 2012 3-b
2. Yusupov A.L Inglizcha Idiomalar lug'ati//Toshkent, Yangi Asr Avlodi 2014 4-6-betlar
3. <https://kun.uz/uz/34546920>
4. <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>
5. <https://www.englishclub.com/vocabulary/phrasal-verbs-list.php>
6. Mamayusupovna A.Q. O'ZBEK VA INGLIZ FRAZELOGIYASI TAHLILI//Development International Journal on 299-300 pp/P